



TIBBIY TERMINOLOGIYANING YARATILISHIDA LINGVISTIK YONDASHUVLAR HAMDA EKVIVALENTLIK NAZARIYASI

Sevaraxon Alimatova Xasanjon qizi

Qo`qon Universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tibbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishida lingvistik yondashuvlarning o'rni, shuningdek, ekvivalentlik nazariyasining tarjima jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Tibbiy terminlar morfologik, semantik va sintaktik jihatdan o'rganilib, ularning xalqaro hamkorlikdagi kommunikativ roliga baho beriladi. Tarjima jarayonida terminlarning to'g'ri va izchil ekvivalentini topish, ma'no buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ekvivalentlik nazariyasiga tayanuvchi yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola tibbiyot va tilshunoslik fanlari tutashgan nuqtalardagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *tibbiy terminologiya, lingvistik yondashuv, ekvivalentlik nazariyasi, tarjima, semantika, terminlar tarjimasi, terminologik muammolar*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль лингвистических подходов в формировании и развитии медицинской терминологии, а также значение теории эквивалентности в процессе перевода медицинских терминов. Проанализированы морфологические, семантические и синтаксические особенности терминов, определено их значение в межъязыковой коммуникации. Особое внимание уделено теоретическим основам выбора адекватного эквивалента при переводе, с целью сохранения точности и однозначности медицинской информации. Работа затрагивает актуальные вопросы на стыке медицины и лингвистики.

Ключевые слова: *медицинская терминология, лингвистический подход, теория эквивалентности, перевод, семантика, перевод терминов, терминологические проблемы*

Annotation. *This article explores the role of linguistic approaches in the formation and development of medical terminology, as well as the importance of equivalence theory in the translation of medical terms. The study analyzes the morphological, semantic, and syntactic features of medical terms and evaluates their role in international scientific communication. Special emphasis is placed on translation strategies that ensure the selection of accurate and consistent equivalents in order to preserve the meaning and clarity of medical texts. The paper addresses key issues at the intersection of medical science and linguistics.*





Keywords: *medical terminology, linguistic approach, equivalence theory, translation, semantics, translation of terms, terminological issues*

Kirish. Bugungi globallashuv va ilm-fan taraqqiyoti davrida tibbiyot sohasi insoniyat salomatligini saqlash va tiklashda eng muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tibbiyot fanining ilmiy asoslarda shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi bevosita uning atama va tushunchalari orqali ifodalanadi. Shunday ekan, tibbiy terminologiya bu sohaning asosiy kommunikativ vositasi, ya’ni tibbiy bilim va tajriba almashinuvining til orqali ifodalanadigan eng muhim shaklidir. Har qanday ilmiy sohaga xos bo‘lganidek, tibbiyotda ham o‘ziga xos terminologik tizim mavjud bo‘lib, ushbu tizim orqali turli kasalliklar, ularning sabablari, belgilari, tashxis qo‘yish usullari, davolash metodlari va profilaktika choralarini aniq va ravshan bayon etish mumkin bo‘ladi. Shu sababli tibbiy terminologiya ilmiy va amaliy tibbiyot faoliyatining ajralmas qismi sifatida alohida o‘rganishga loyiqdir.

Tibbiy terminlar, odatda, ilmiy aniqlik, lo‘ndalik va mantiqiy izchillikni ta’minlaydigan shaklda yaratiladi. Bu terminlar nafaqat professional tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi muloqotda, balki ilmiy maqolalar, darsliklar, klinik yo‘riqnomalar, statistik hisobotlar va sog‘liqni saqlash tizimidagi rasmiy hujjatlarda keng qo‘llaniladi. Tibbiy terminologiyani yaratishda va uni mukammallashtirishda tilshunoslik fanining, xususan, lingvistik yondashuvlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, morfologik, semantik va sintaktik tahlillar orqali tibbiy atamalarning tarkibi, ma’nosi va ishlatilish doirasi chuqr o‘rganiladi. Bunday yondashuvlar til birliklarining ilmiy asoslarda shakllanishiga, ularning tizimli va universal tus olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tibbiyotda ko‘p tillilik va madaniyatlararo muloqot muhitida tibbiy terminlarning boshqa tillarga to‘g‘ri va aniqlik bilan tarjima qilinishi nihoyatda muhim masalalardan biridir. Tarjima jarayonida ekvivalentlik nazariyasi asosiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariya tibbiy matnlar tarjimasida ma’no to‘liqligini saqlash, kontekstual muvofiqlikni ta’minalash hamda terminologik izchillikni buzmaslik uchun zarur bo‘lgan lingvistik vositalarni tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Tibbiy atamalar tarjimasi ko‘p hollarda murakkablik tug‘diradi, chunki har bir til o‘zining leksik, grammatik va semantik qonuniyatlariga ega. Shunday ekan, ekvivalentlik darajasini aniqlash, tibbiy terminlarning mos variantini tanlash, ularni milliy tilda to‘g‘ri ifodalash tilshunos tarjimonlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiy terminologiyaning yaratilishi va rivojlanishida lingvistik yondashuvlar chuqr ilmiy asosga ega bo‘lib, ayni vaqtida ushbu terminlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



nazariyasining qo'llanishi tibbiyot fanining aniq, tushunarli va global darajada kommunikativ bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiy terminologiya tilshunoslikning alohida tarmoqlaridan biri sifatida ko'plab mutaxassislar e'tiborini tortib kelmoqda. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminologiya nafaqat tibbiyot fanining asosiy kommunikativ vositasi, balki uni boshqa tillar va madaniyatlar bilan bog'lovchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bu terminlar ko'pincha lotincha va qadimgi yunoncha manbalardan kelib chiqadi, bu esa ularni lingvistik jihatdan tarixiy va etimologik tahlil qilishni talab etadi.

Tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganishda A.A. Reformatskiy, L.P. Krysin va T.L. Kandelaki kabi rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. A.A. Reformatskiy til tizimining terminologik aspektlarini o'rganib, terminlar tizimlilik, aniqlik va ixchamlik kabi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu jihatlar aynan tibbiy terminologiyada yaqqol namoyon bo'ladi, chunki bu sohada noaniqliklar bemor hayotiga xavf tug'dirishi mumkin. T.L. Kandelaki esa tibbiy terminlarning morfologik tuzilmasiga e'tibor qaratib, ularning hosila shakllari va semantik differensial belgilarini o'rganadi.

Jahon tilshunoslida esa Mona Baker, J.C. Catford, P. Newmark va Eugene Nida kabi olimlar tarjima jarayonida ekvivalentlik nazariyasining o'rniغا alohida to'xtalib o'tadilar. Ularning asarlarida tibbiy matnlar tarjimasini uchun maxsus usullar, pragmatik yondashuvlar va semantik moslik mezonlari taklif etilgan. Xusan, P. Newmark o'zining "Approaches to Translation" nomli asarida tibbiy terminlarning tarjimasida "communicative translation" va "semantic translation" uslublarini farqlaydi. Mona Baker esa "ekvivalentlik" tushunchasini turli darajalarda – so'z darajasida, grammatik darajada, matn darajasida – tahlil qiladi.

Ekvivalentlik nazariyasining mohiyati tibbiy terminlarni boshqa tillarga tarjima qilishda semantik, kontekstual va funksional muvofiqlikni saqlashga qaratilgandir. Tarjima qilingan tibbiy termin, asl nusxadagi terminning nafaqat ma'nosini, balki uning uslubiy va ilmiy aniqligini ham saqlab qolishi kerak. Bu borada Nida va Taberning "Theory and Practice of Translation" asari asosiy nazariy manba sifatida e'tirof etiladi. Ular ekvivalentlikni "formal" va "dynamic" (ya'ni, shakliy va dinamik) turlarga ajratadi. Dinamik ekvivalentlik, ayniqsa, tibbiy matnlarda bemorlar yoki keng auditoriyaga mo'ljallangan materiallar tarjimasida dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunoslida esa tibbiy terminlarning shakllanishi va ularning tarjima masalalarini o'rganish so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Jumladan, M. Qodirov, G. Jo'rayev va A. Tursunov kabi tadqiqotchilar o'zbek tilidagi tibbiy terminlarning manbalarini, tarjima usullarini, soha terminlarining milliy xususiyatlarini chuqr





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



tahlil qilganlar. Bu ishlar orqali o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan terminologik muhitning shakllanishi, xalqaro terminlarga bo‘lgan moslashuvchanlik darajasi aniqlanmoqda. Aksariyat holatlarda xalqaro tibbiy terminlar o‘zbek tilida transkripsiya yoki transliteratsiya yo‘li bilan qo‘llanilmoqda, ammo bu jarayon ba’zida semantik noaniqlik va ekvivalentlik muammolariga olib keladi.

Tibbiy terminologiyaga oid xalqaro hujjatlar ham tahlilga arzигулидир. Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan e’lon qilingan ICD (International Classification of Diseases) va SNOMED CT (Systematized Nomenclature of Medicine) tizimlari tibbiy terminlarning standartlashuvi va unifikatsiyasi yo‘lidagi global harakatlarning natijasidir. Bu tizimlar orqali turli tillarda yagona tibbiy tushunchalarni ishlatish imkoniyati paydo bo‘lmoqda, bu esa global sog‘liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy terminologiya va tarjima nazariyasi kesishgan nuqtada joylashgan ilmiy izlanishlar keng ko‘lamli va interdiscipliner xarakterga ega. Bu yo‘nalishda lingvistik va tibbiy bilimlarni birgalikda qo‘llash, zamonaviy tarjima texnologiyalaridan foydalanish va milliy tilga xoslikni saqlagan holda ilmiy aniq terminlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Munozara. Tibbiy terminologiya nafaqat tibbiyot sohasi mutaxassislari o‘rtasida anqlik va tushunarlikni ta’minlashda, balki ko‘p tilli va madaniyatli kommunikatsiyada ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan lingvistik yondashuvlar va ekvivalentlik nazariyasi tibbiy terminlarning tarjima jarayonida qanday muammolar va imkoniyatlarni yuzaga chiqarishini ochib beradi. Avvalo, terminlarning lingvistik tabiati, ya’ni ularning morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari, tarjimada yuzaga keladigan semantik noaniqliklar, kontekstual tafovutlar va madaniy tafsirlarga bevosita bog‘liqdir.

Tibbiy matnlar yuqori darajadagi anqlik va qat’iylikni talab qilganligi sababli, ularning tarjimasida ekvivalentlik masalasi juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ko‘pincha tarjimonlar tanlov oldida qoladilar: ular terminning shakliy ekvivalentini saqlashga intiladilarmi yoki mazmuniy anqlikni ustuvor deb biladilarmi? Masalan, ba’zi xalqaro atamalar (masalan, myocardial infarction) o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasi mumkin, bu holatda esa tavsiflovchi tarjima, ya’ni "yurak mushagi infarkti" yoki "yurak mushak to‘qimalarining o‘limi" kabi variantlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu esa tarjimada kontekstga moslashuvchanlikni talab qiladi. Munozarada shuni ta’kidlash joizki, tarjimada ekvivalentlik nazariyasiga doir klassik yondashuvlar (Nida, Newmark, Baker) amaliyotda turli tibbiy janrlar va kontekstlarga qarab moslashtirilishi lozim. Masalan, ilmiy-tadqiqot maqolalari uchun shakliy ekvivalentlik ustuvor bo‘lsa, bemorlar uchun





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



mo‘ljallangan tibbiy ko‘rsatmalar yoki broshyuralarda esa dinamik yoki funksional ekvivalentlik afzal hisoblanadi. Bu yondashuvlar tarjimonning kompetensiyasini, soha bo‘yicha bilimini va maqsadli auditoriyani chuqur anglashini talab qiladi.

Bundan tashqari, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan terminologik barqarorlik, ierarxik tuzilma, sinonimiya va antonimiya kabi hodisalar tibbiy terminologiyada ham muhim rol o‘ynaydi. Ular tarjimon uchun imkoniyat bo‘lishi bilan birga, noto‘g‘ri tanlov holatlarida semantik xatolarga ham olib kelishi mumkin. Ayniqsa, sohaning doimiy rivojlanishi, yangi kasalliklar, muolajalar va texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda yangi terminlarning paydo bo‘lishi, ularni o‘zbek tiliga moslashtirish muammosi kundan-kunga dolzarblashib bormoqda. Zamonaviy tarjima texnologiyalarining, jumladan, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari, korpus lingvistikasi va terminologik bazalarning rivojlanishi bu borada katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bunday texnologiyalar ham lingvistik, semantik va madaniy tafovutlarni to‘liq qamrab ololmasligi sababli, inson faktori, ya’ni tajribali va malakali tarjimonlarning ishtiroki hanuz muhim hisoblanadi. Tibbiy terminologiyaning shakllanishi va tarjimasida lingvistik yondashuvlar hamda ekvivalentlik nazariyasining uyg‘unligi dolzarb ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida har bir termin alohida kontekstda ko‘rib chiqilishi, uning semantik mazmuni va funksional yuklamasi chuqur tahlil qilinishi lozim. Faqat shundagina tibbiy axborotning aniq, to‘g‘ri va tushunarli yetkazilishi ta’minlanadi.

Xulosa. Tibbiy terminologiyaning shakllanishi va ularning boshqa tillarga tarjimasida lingvistik yondashuvlar hamda ekvivalentlik nazariyasi muhim metodologik asos hisoblanadi. Tibbiy terminlar murakkab semantik va morfologik tuzilishga ega bo‘lib, ularni tarjima qilishda faqat lug‘aviy moslik emas, balki funksional va kontekstual aniqlikni ham ta’minalash zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, terminlarning tarjimasida ekvivalentlik darajalari (shakliy, semantik, pragmatik) to‘g‘ri tanlanmasa, bu ilmiy axborotning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Lingvistik yondashuvlar orqali tibbiy terminlarning ichki tuzilmasini o‘rganish, ularning etimologiyasi va tuzilish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa tarjimonlar va terminologlar uchun asosli yondashuv ishlab chiqishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilida xalqaro tibbiy terminlarni milliy tilga moslashtirishda lingvistik va madaniy omillarni hisobga olish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminologiyani o‘rganishda lingvistik yondashuvlar va tarjimada ekvivalentlik nazariyasini uyg‘un holda qo‘llash, tibbiy axborotning aniqligi, tushunarligi va xalqaro darajadagi almashinushi uchun zarur shartdir. Mazkur mavzu doirasidagi izlanishlar tibbiy tarjima sifatini oshirish, terminologik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



birliklarning milliy tilga mos, aniq va ilmiy asoslangan shaklini yaratish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. — М.: Аспект Пресс, 2000. — 348 с.
2. Канделаки Т.Л. Лексика и терминология. — М.: Наука, 1977. — 234 с.
3. Крысин Л.П. Современные проблемы лексикологии и лексикографии. — М.: Наука, 1985. — 212 с.
4. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. — Leiden: Brill, 1982. — 206 p.
5. Newmark P. Approaches to Translation. — Oxford: Pergamon Press, 1981. — 184 p.
6. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 1992. — 240 p.
7. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — London: Oxford University Press, 1965. — 108 p.
8. Қодиров М. Таржимада терминлар муаммоси. — Тошкент: Фан, 2015. — 176 б.
9. Жўраев Ф. Илмий услубда таржима ва эквивалентлик. — Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2017. — 142 б.
10. Турсунов А. Тил ва таржима назарияси. — Бухоро: БМТИ нашриёти, 2021. — 198 б.
11. World Health Organization. International Classification of Diseases (ICD-11). — Geneva: WHO, 2019.
12. SNOMED International. SNOMED CT Starter Guide. — London: SNOMED International, 2020.